IJRO.GOV.UZ tizimi orqali ERI bilan tasdiqlangan, Hujjat kodi: OE82381258

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
SOG‘LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI

100011, Toshkent shahri, Navoiy ko‘chasi, 4

2026-yil « 10 » noyabr 05-28/31969-son

Oliy ta’lim muassasalari

Malaka oshirish va qayta tayyorlash markazlari

Respublika ilmiy-amaliy tibbiyot markazlari

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026 yil 27-oktabr kuni tibbiyot va farmatsevtika sohasi xodimlari bilan o‘tkazgan uchrashuvida belgilangan vazifalar ijrosini ta’minlash hamda ularni amalga oshirish bilan bog‘liq tashkiliy masalalarni muhokama qilish maqsadida 2026 yil 11-noyabr kuni soat 15-00 da Sog‘liqni saqlash vazirligida vazir o‘rinbosari A. Xudayqulov rahbarligida yig‘ilish o‘tkazilishi rejalashtirilgan.

Mazkur yig‘ilishda oliy ta’lim muassasalari rektorlari, o‘quv va ilmiy ishlar bo‘yicha prorektorlari, malaka oshirish markazlari hamda ilmiy-amaliy tibbiyot markazlari direktorlari, ularning o‘quv va ilmiy ishlar bo‘yicha o‘rinbosarlari, shuningdek, ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengashlarning ilmiy kotiblari shaxsan ishtirok etishlarini ta’minlashingiz so‘raladi.

Vazir o‘rinbosari **A.Xudaykulov**

Ijrochi: B.Xolmatov
Tel: +998 71 203-15-19 (130)